



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

qulayligini ta’minlab, bozor raqobatini kuchaytiradi hamda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida FinTech texnologiyalarini rivojlantirish va ularni moliya tizimiga integratsiya qilish mamlakat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Fintex moliya tizimini reaktiv modeldan (mijoz so‘roviga javob berish) proaktiv va avtonom modelga o‘tkazmoqda. Fintex nafaqat texnik vosita, balki moliya tizimining yangi iqtisodiy modelini shakllantiruvchi drayverdir. Uning rivojlanishi foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratsa-da, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi masalalarida yangi tartibga solish mexanizmlarini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent, 2020.
2. Qodirov va Tursunov (2021/2025): “Moliya tizimi va axborot texnologiyalari” - axborot texnologiyalarining moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirishi va shaffofligini oshirishi tahlil qilingan.
3. Uzakov, U. A. (2025): “Raqamli to‘lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich” — raqamli moliya xizmatlarining iqtisodiyotga ta’siri haqida.

UDK:339.13

RIVOJLANISH STRATEGIYALARIDA RAQOBAT VA HAMKORLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUV VA AMALIY TAHLIL

БАЛАНС МЕЖДУ КОНКУРЕНЦИЕЙ И СОТРУДНИЧЕСТВОМ В СТРАТЕГИЯХ РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

BALANCE BETWEEN COMPETITION AND COOPERATION IN DEVELOPMENT STRATEGIES: THEORETICAL APPROACH AND PRACTICAL ANALYSIS

Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti, (DSc)
ORCID: 0000-0002-3589-373X

Muradova Nazira Raximjanovna

Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida katta o‘qituvchisi
ORCID: - 0009-0009-3383-8102

Annotatsiya

Mazkur maqolada rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot institutsional iqtisodiyot va strategik boshqaruv konsepsiyalari asosida olib borilib, turli mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan. Natijalar raqobat va hamkorlikning optimal uyg‘unligi innovatsion rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu asosda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqobat, hamkorlik, rivojlanish strategiyasi, iqtisodiy rivojlanish, strategik boshqaruv, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik.

В данной статье анализируются вопросы баланса между конкуренцией и сотрудничеством в стратегиях развития. Исследование проводится на основе концепций институциональной экономики и стратегического управления, а также изучается опыт различных стран. Результаты показывают, что оптимальное сочетание конкуренции и

сотрудничества имеет большое значение для обеспечения инновационного развития, эффективного использования ресурсов и экономической стабильности. На этой основе разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию стратегий экономического развития.

Ключевые слова: Конкуренция, сотрудничество, стратегия развития, экономическое развитие, стратегическое управление, инновационное развитие, экономическая эффективность.

This article analyzes the issues of balance between competition and cooperation in development strategies. The research is conducted on the basis of the concepts of institutional economics and strategic management, and the experience of different countries is studied. The results show that the optimal combination of competition and cooperation is of great importance in ensuring innovative development, efficient use of resources, and economic stability. On this basis, scientific and practical recommendations for improving economic development strategies have been developed.

Keywords: Competition, cooperation, development strategy, economic development, strategic management, innovative development, economic efficiency.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari global integratsiya, innovatsion texnologiyalar va institutsional islohotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda raqobat va hamkorlik omillarini uyg‘unlashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu jarayon ayniqsa hududiy rivojlanish, sanoat klasterlari tashkil etish va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi munosabatlar iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim o‘rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga ko‘ra, korxonalar va mamlakatlarning raqobatbardoshligi innovatsiyalar, samarali boshqaruv hamda strategik ustunliklar orqali shakllanadi, raqobat muhiti esa iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi [1].

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati ham alohida ta‘kidlanadi. Institutsional iqtisodiyot vakili D. North iqtisodiy rivojlanishda samarali institutlar, ishonch va hamkorlik omillari muhim rol o‘ynashini qayd etadi. Uning fikricha, rivojlangan institutlar bozor munosabatlarining samarali ishlashini ta‘minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi [2].

Ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilayotgan “coopetition” konsepsiyasi esa raqobat va hamkorlikning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishini ifodalaydi. B. Nalebuff va A. Brandenburger ushbu yondashuv orqali bozor subyektlari raqobat sharoitida ham umumiy manfaatlar asosida hamkorlik qilishi mumkinligini asoslab bergan. Bu esa innovatsion rivojlanish va bozor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Xalqaro tadqiqotlar ham hamkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. OECD tahlillariga ko‘ra, korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion faoliyatni jadallashtiradi hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlaydi [4]. O‘zbekiston sharoitida ham sanoat klasterlari, hududiy iqtisodiy hamkorlik va innovatsion loyihalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari kengaytirilmoqda [5]. Bu esa rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni ilmiy jihatdan o‘rganish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, institutsional tahlil hamda taqqoslama iqtisodiy tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, mantiqiy umumlashtirish hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali xalqaro tajriba, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va rivojlanish strategiyalarida qo‘llanilayotgan raqobat hamda hamkorlik

mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Natijada iqtisodiy rivojlanishda raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlashga doir ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari shuni ko‘rsatadiki, raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat iqtisodiy tizimlarning samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat iqtisodiy subyektlarni samarali faoliyat yuritishga undaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Biroq global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida korxonalar, hududlar va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining roli ham tobora ortib bormoqda.

Raqobat iqtisodiy tizimda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi va ishlab chiqaruvchilarni yangi texnologiyalarni joriy etishga majbur qiladi. Shu bilan birga, haddan tashqari keskin raqobat ayrim holatlarda iqtisodiy beqarorlik, bozor konsentratsiyasi yoki resurslarning samarasiz taqsimlanishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida raqobatni qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda hamkorlik asosidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanish jarayonlarida korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, sanoat klasterlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va texnologik parklar doirasida shakllangan hamkorlik tizimlari yangi bilim va texnologiyalarni tezroq joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini oshirish hamda global raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlikning o‘zaro uyg‘unlashuvi ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda sanoat klasterlari va innovatsion ekotizimlar orqali korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirilgan holda sog‘lom raqobat muhiti saqlab qolinadi. Natijada korxonalar bir tomondan o‘zaro raqobat qilsa, ikkinchi tomondan ilmiy tadqiqotlar, texnologiyalar va infratuzilma bo‘yicha hamkorlik qiladi.

Quyidagi jadvalda raqobat va hamkorlikning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha umumlashtirilgan.

1-jadval

Raqobat va hamkorlik omillarining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri

Omillar	Raqobatning ta’siri	Hamkorlikning ta’siri	Umumiy natija
Innovatsiyalar	Korxonalarni yangi texnologiyalar joriy etishga undaydi	Ilmiy tadqiqotlar va bilim almashinuvini kuchaytiradi	Innovatsion rivojlanish tezlashadi
Resurslardan foydalanish	Samaradorlikni oshiradi	Resurslarni birgalikda foydalanish imkonini beradi	Resurslar optimal taqsimlanadi
Bozor rivoji	Sifat va xizmatlar darajasini oshiradi	Yangi bozorlarni shakllantirishga yordam beradi	Bozor kengayadi
Iqtisodiy barqarorlik	Samarali ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi	Risklarni kamaytiradi	Barqaror iqtisodiy o‘sish

Manba: Muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, raqobat va hamkorlik bir-birini inkor etuvchi emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi iqtisodiy mexanizmlar hisoblanadi. Raqobat iqtisodiy samaradorlikni oshirsa, hamkorlik iqtisodiy tizimda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish modellarida ayniqsa “kooperativ raqobat” (coopetition) konsepsiyasi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu modelga ko‘ra, iqtisodiy subyektlar bir tomondan bozor ulushi uchun raqobat qilsa, ikkinchi tomondan umumiy manfaatlar doirasida hamkorlik qiladi. Bu yondashuv ayniqsa innovatsion faoliyatda, ilmiy tadqiqotlarda va yangi texnologiyalarni joriy etishda samarali natijalar bermoqda.

Shuningdek, hududiy rivojlanish strategiyalarida ham raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat muhim rol o‘ynaydi. Hududlar o‘rtasidagi raqobat investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy

faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilsa, hududlararo hamkorlik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

2-jadval

Iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Raqobat mexanizmi	Hamkorlik mexanizmi	Kutilayotgan natija
Innovatsion rivojlanish	Texnologik ustunlik uchun raqobat	Ilmiy markazlar va universitetlar bilan hamkorlik	Innovatsion iqtisodiyot
Sanoat rivoji	Mahsulot sifati va narxi bo‘yicha raqobat	Sanoat klasterlari va ishlab chiqarish kooperatsiyasi	Sanoat samaradorligi
Hududiy rivojlanish	Investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha raqobat	Hududlararo iqtisodiy hamkorlik	Muvozanatli hududiy rivojlanish
Xalqaro iqtisodiy aloqalar	Eksport bozorlarida raqobat	Savdo va investitsiya hamkorligi	Global integratsiya

Manba: Muallif ishlanmasi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanishda raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Agar iqtisodiy tizim faqat raqobatga asoslangan bo‘lsa, bu ayrim holatlarda resurslarning haddan tashqari konsentratsiyasiga olib kelishi mumkin. Aksincha, faqat hamkorlikka asoslangan tizimda esa iqtisodiy samaradorlik pasayishi ehtimoli mavjud. Shu sababli rivojlanish strategiyalarida ushbu ikki omilning uyg‘unligini ta‘minlash zarur.

O‘zbekiston sharoitida ham iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish jarayonida raqobat muhitini rivojlantirish bilan bir qatorda hamkorlik mexanizmlarini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sanoat klasterlari tashkil etilishi, hududiy iqtisodiy loyihalar hamda innovatsion markazlarning rivojlanishi bu borada muhim natijalar berayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash iqtisodiy tizimning barqaror va samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Raqobat va hamkorlik bir-birini inkor etuvchi emas, balki iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi omillari hisoblanadi. Raqobat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilsa, hamkorlik esa iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, innovatsion bilimlar almashinuvini kengaytirish hamda umumiy iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat klasterlari, innovatsion ekotizimlar va hududiy iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari orqali raqobat va hamkorlikning uyg‘unlashuvi iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta‘minlash iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv iqtisodiy tizimning uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Porter, M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
2. North, D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

3. Brandenburger, A., and B. Nalebuff. Co-opetition. New York: Doubleday, 1996.
4. OECD. Innovation, Collaboration and Economic Growth. Paris: OECD Publishing, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni .Toshkent, 2022.
6. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. Green Economy and Development, 1(10), 664440.
7. Xolmirzayev, U. B., & Normatov, J. (2026). MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(2).
8. Madraimov, A., Ulug‘Muradova, N., Ravshanov, A., Kholmirzaev, U., Egamberdiyeva, I., & Nortoeva, U. (2025, April). Predicting Tourist Spending Behavior Using Bayesian Networks. In 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCIES) (pp. 1-5). IEEE.

UDK:336.02

EKOLOGIK VAZIYATNI BARQARORLASHTIRISHDA SOLIQ MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI: XORIJ TAJRIBASI

МЕТОДОЛОГИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ДЛЯ СТАБИЛИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ: ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ

METHODOLOGY OF EFFECTIVE USE OF TAX MECHANISMS IN STABILIZING THE ECOLOGICAL SITUATION: FOREIGN EXPERIENCE

Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Mamun universitet dotsenti (PhD)

Annatsiya

Mazkur maqolada ekologik muammolarni hal etishda iqtisodiy instrumentlardan biri bo‘lgan ekologik soliqlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish metodologiyasini o‘rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida tahlil, taqqoslash, statistik va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik soliqlar atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: ekologik soliq, ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, soliq mexanizmi, ekologik barqarorlik.

В данной статье анализируется значение экологических налогов как одного из экономических инструментов решения экологических проблем. Основной целью исследования является изучение методологии эффективного использования налогового механизма для стабилизации экологической ситуации, а также анализ опыта развитых зарубежных стран. В ходе исследования были использованы методы анализа, сравнительного анализа, статистического анализа и логического обобщения. Результаты исследования показывают, что экологические налоги играют важную роль в снижении загрязнения окружающей среды, стимулировании рационального использования природных ресурсов и обеспечении экономической устойчивости.